



## MEN O'QIGAN ASAR

**Ochilova.N.F**

*Samarqand Davlat Chet Tillar Insitituti  
Ingiliz Tili va Adabiyot Nazariyasi Kafedrası o'qıtuvchısı*

**Akbarova.M.A**

*Samarqand Davlat Chet tillar Insitituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada asar haqida har xil fikrlar mavjud. Bu asar haqida ko'plab yozuvchilar o'z fikrlarini berganlar. Robina Sharmaning "O'lsang kim yig'laydi" asarining nomida bir olam ma'no bor. Ha bu asar insonlarga hayotning har qanday zarbasiga qarshi qalqon vazifasini o'taydi. Ayniqsa, hozirgi insonlar pala-partish hayotini tartibga solib olishi uchun yordam beradi. Bu kitob bir marta o'qilib javondan joy oladigan kitob emas. Uni xohlagan vaqtda o'qib undan saboq olish mumkin. Bu asarda hayotga bo'lgan muhabat va dunyo qarashiyiz o'zgaradi. Har qanday asar hayotingizga bir xususiyati bilan joy qoldiradi. Ammo bu kitob uzoq vaqt mobaynida qalbimizga o'chmas iz qoldiradi. Bbu kitob o'zining mativatsiya va hayotga olg'a qadam tashlashni o'gatish bilan boshqa kitoblardan farq qilib turadi.*

**Kalit so'z:** O'lim haq, bu dunyo boyliklari, kartichka, notanish, yumshoqlik, dard, chumolilar, shod-xurram, muvaffaqiyat, kaliti.

### **Yodingda tut, anglash –o'zgarishlar darakchisidir!**

Hozirgi kunda O'zbekisto Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayev Ta'lim sohasiga oid qaror, farmonva farmoishlar kiritilmoqda. Va Konsitutsiyamizga oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish chora tadbirlari to'g'isida qonun kiritildi. Shu bilan bir qatorda professiona lta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qonun qabul qilindi.

Ilk bor O'zbekiston Prezidenti xuzirida Davlat boshqaruvi Akademiyasi Manaviyat va Marifatli kafedrası tomonidan Doktor Sharma Robin "O'lsang kim yig'laydi" asari Abduqayum Yo'ldosh tomonidan tarjima qilingan.

Hayot haqiqatlarini ajoyib tarzda yozgan yozuvchiga qoyil qolmaslikni iloji yo'q. Haqiqiy motivator ekanligiga ishondim. Ayniqsa shu kunlarda kayfiyatim yo'qroq, o'zimni har qachongidan ham loqayd his qilgan mahalda o'qiganim uchun bu kitobdan juda zavq oldim. Robin Sharma go'yoki tepamda turib tur nega o'tiribsan? O'lsang kim yig'laydi degandek bo'laverdi. Men o'zimni qo'lga oldim, hayotga bo'lgan ishonchim qaytdi, bu



kitobni endi men doim o'qiyman chunki unda oltindan ham qimmatli ajoyib maslahatlar berilgan.

Bu kitobdagi eng ta'sirlangan asarim " Yodingda tut, anglash – o'zgarishlar darakchisidir" degan hikoya. Bunday jumlar mening hayotga qarashim yanada oshgan Shu kitobni o'qigan kunimdan o'qishga bo'lgan va hayotga bo'lgan intilishim yanada ortgan.

Inson hayotiga bir marotaba kelar ekan shu narsani unutmasligi kerak " O'lim haq va bu dunyo boyliklar bularning bari o'tkinchi" shunday ekan vaqtimizni behuda o'tkazmaylik azizlarim! O'zimizdan o'chmas bir iz qoldiraylik. Xayotingizning bosh maqsadlarini aniqlab olaylik, keyin esa muaffaqiyatni jamiyatdagi erishilgan mavqe bilan bilan emas, inson bu muaffaqiyatiga erishish yo'lida yengib o'tgan to'siqlar miqdori bilan o'lchash lozimligini tushunib yetaylik. Yodingizda tuting! Har doim yoningizga har bir cho'qqiga ko'tarilgan kartichka olib yuring. Bu sizga keying ishingizni yanada shijoat bilan erishishga yordam beradi [3,59].

Robina Sharmaning shunday ulug' jumalari bor:

"Inson zotining eng buyuk va oliy janob yutig'i –maqsad sari intilib yashashdir".

Sen tug'ilganingda yig'laganding,dunyo esa shod-xurram edi.Shunday yashaganki, vafot etayotganingda dunyo yig'lasin, sen shod-xurram bo'l.

Har kuni biron notanish odamga yaxshilik qil [1,7]

O'zingizga qanchalik qattiqqo'llik bilan yondoshsangiz,hayot sizga shunchalik yumshoqlik bilan yondashadi.

Yodingizda tuting: baxtli odamlar baxtsizlardan ko'ra ko'proq iztiroblarga duch kelgan bo'lishi mumkin [5,123]

Band bo'lishning o'zi yetarli emas, chumolilar ham band bo'ladi.Muammo siz nima bilan band ekanligingizda [4,112].

Dard eng yaxshi ustoz, omadsizlik esa muvaffaqiyatga olib boruvchi eng qisqa yo'l.

Donishmandlik-ayni paytda nima qilishni bilish, uquv-buni qanday bajarishni tushunish,haqiqiy jasorat esa - shartta bajarib qo'yish.

Ushbu gaplarni hammasi ham Robim Sharmaga tegishli emas ammo shu asarda keltirilgan ulug' jumlarardan bir nechtasi holos!

Shu bilan bir qatorda, men agar inson o'z kamchiligini anglab, unga jiddiy e'tibor qaratsa, muammo yechimi o'z-o'zidan topilishiga amin bo'ldim. Misol uchun' fiklarimni yetkazib berish uchun sekinroq gaprishim lozimligini anglaganim zaxoti gazetalaridagi notiqlik sanati bo'yicha seminarlar e'lonlarinin belgilab bora boshladim. Bundan tashqari, kitob do'konlaridek javonlarda menga zarur asarlar o'z o'zidan ko'zimga



tashlanib qolayotgandek edi, yonimda esa bu borada menga ko'p narsalarni o'rgatishlari mumkin bo'lgan odamlar yig'ila boshladi. Shunday ekan, shu haftadayoq o'zingizning kamchilik-kusurlaringizni xaqida bir mulohaza yuritib ko'ring hamda ularni hayotingizni fayzli va go'zal etadigan fazilatlarga aylantiraman, deya o'zingizga so'z bering.

Shunday ekan keling gapni ko'paytirmay, ushbu asarni o'qib chiqing. Faqat sizdan iltimos, agar uni o'qib nimadir olgan bo'lsangiz, eng muhimi tushungan bo'lsangi, qolgan do'stlaringizga ham ilining va ulashing. Kitob "Hayotingiz" dan joy oladi degan umitdaman!

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi (2023) 08.10.20.4-1/23
2. Robin Sharma (2021) O'lsang Kim Yig'laydi ISBN 978-9943-5558-1-5
3. Maksuell Molis (1995) Psixokibernetika, Matonatli odamning maktublari ISBN 003-7753-1242-2-3
4. Tomas Edison Daxo – bu 1 foiz ilxom va 99 foiz ter to'kishdir (1978) ISBN 223-5555-6594-4-1